
TOSHLOQDA 32 NAFAR YOSHLARGA SUBSIDIYA ASOSIDA ASBOB- USKUNALAR TOPSHIRILDI

Bugun Toshloq tumani hokimligida 32 nafar yoshlarga 150 million soʻmlik tadbirkorlik faoliyatini boshlash va oʻzini-oʻzi band qilishga zarur boʻlgan asbob-uskunalar va mehnat qurollari, 6 nafar yoshlarga kompyuter jamlanmasi, 12 nafariga tikuv mashinasi hamda 14 nafar yoshlarga mehnat qurollari, asbob-uskunalari topshirildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, taklif va istaklarini oʻrganish, ularni hal etish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini taʼkidlab oʻtdi.

Shundan soʻng, tuman hokimi hamda sektor rahbarlari 32 nafar yoshlarga bandligini taʼminlash uchun subsidiya asosidagi asbob-uskunalarni topshirdilar.

2023-09-16 18:13:43